

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya
fakultetida ertalabki darslar davlatimiz ramzi "Madhiya " sadolari ostida
boshlanganligi to'g'risida
B A Y O N N O M A S I**

**2025-yil 7-mart kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti faollar
zalida**

Qatnashdilar:Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev,professor-o'qituvchilari, fakultet tyutorlar: O.Djumayeva, D.Hafizova,N.Farmonov,A.Nasriyev va fakultet talabalari va magistrarlar Norova Nozima

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari

ESHITILDI:

2025-yil 7-mart Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev so'zni ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrda 768-XII-sonli «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Majburiy ijro etish holatlari:

O'zbekiston Respublikasining „O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida“gi qonuniga muvofiq madhiya quyidagi holatlarda ijro etilishi shart:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishganidan — qasamyod qabul qilganidan keyin;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarining ochilish va yopilishida.



Bayonlashtirdi:

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti talabalari bilan “Dekan va talabalar uchrashuvi” doirasida o‘tkazilgan davra suhbatı BAYONNOMASI

7.03.2025 yil

tyutor O.E.Djumayeva

Buxoro shahar

Qatnashdilar:

Qatnashdilar: Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani A.A.Qodirov, Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari I.R.Barakayev, tyutorlar va talabalarli va magistrleri Norova Nozima

Kun tartibi:

“Dekan va yoshlar uchrashuvi” doirasida davra suhbat

Eshitildi:

Joriy yilning 7 -mart kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani A.A.Qodirov “Dekan va yoshlar uchrashuvi” doirasida davra suhbat o‘tkazildi. Hech sir emaski, yurtimiz aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar tarbiyasi, ularning sifatli ta’lim olishlari hamda sog‘lom va barkamol avlod bo‘lib voyaga etishlari Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatining bosh mezonlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlar bilan muloqot olib borish, ularni bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi bilan yanada kengroq tanishtirish har bir fakultetning oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir.

Bugun Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani, professor A.A.Qodirov «Dekan va yoshlar uchrashuvi» tadbiri doirasida fakultetning birinchi bosqich talabalari bilan uchrashdi.

Samimiy muloqot ruhida o‘tgan uchrashuv avvalida A.A.Qodirov yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi o‘laroq, barcha sohalar qatori oliy ta’lim tizimida ham juda ulkan yangilanishlar, ta’lim oluvchilar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilganini, o‘z navbatida yoshlar ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘qib, o‘rganib, kelajakda Yangi O‘zbekiston aniq fanlari rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shishlari lozimligini ta’kidladi.

Fakultetda yoshlar bilan muloqot qilish doimiy an’ana ekanligini, ularning tashabbuslari va takliflarini amalga tadbiiq etishga doimo tayyor ekanligini bayon qilib, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan batafsil tanishtirdi.

Jumladan, yosh iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning iste’dodini namoyon qilishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Talabalar

akademiyasi faoliyat olib borayotganligini, shuningdek, «Besh tashabbus – besh imkoniyat» kabi tanlovlar tashkil etildi hamda g‘olib va sovrindorlar munosib taqdirlanganligini bildirdi.

Shuningdek, talabalarni turar joy bilan ta’minlash masalasiga to‘xtalib, bu borada ustuvorlik birinchi bosqich talabalariga berilganini aytib o‘tdi. Shuningdek, to‘lov shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalarga yaratilayotgan imkoniyatlar bilan ham batafsil tanishtirib o‘tildi.

O‘z navbatida, talaba-yoshlar ham fakultet haqidagi ilk taassurotlari haqida to‘xtalar ekan, ular uchun barcha sharoitlar yaratilgani, ustozlar va xodimlar doimo ularga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lib, bilmaganlarini o‘rgatib kelayotganini aytib o‘tishdi. Shu qatorda o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollariga ham fakultet rahbariyati tomonidan batafsil javoblar oldilar.

Qaror qilindi:

Fakultetda yoshlar bilan muloqot qilish doimiy an’ana ekanligini, ularning tashabbuslari va takliflarini amalga tadbiiq etishga doimo tayyor ekanligini bayon qilib, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar doimiy rahbariyat nazoratida va d



avomli ekanligi aytili





Bayonlashtirdi fakultet tyutori:

D.Hafizova

Zulfiyaxonim tavalludiga bag'ishlangan "Zulfiyaxonim xotirasi qalblarda mangu" nomli tadbir

BAYONNOMASI

Tadbir sanasi: 28.02.2025

Tadbir joyi: Buxoro tuman

Tadbirda ishtirok etganlar: Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar masalalari va ma'naviy marifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, tyutorlar, professor-o'qituvchilar hamda fakultet talabalari va magistrarlari Norova Nozima

Tadbirning maqsadi:

Ushbu tadbir Zulfiyaxonimning hayoti va ijodini yod etish, uning she'riyatiga, shaxsiyatiga hurmat va muhabbatni yana bir bor e'lon qilish hamda uning qalbimizda mangu yashashini ta'kidlash maqsadida o'tkazildi. Zulfiyaxonim — o'zining g'oyaviy va badiiy merosi bilan nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi kunda ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tadbirning o'tkazilish tartibi:

1. **Tadbirning ochilishi:** Tadbirni ochish so'zi Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar masalalari va ma'naviy marifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev tomonidan bo'lib, Zulfiyaxonimning o'ziga xos yuksak shaxsiyati va uning she'riyatining bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekanligi haqida qisqacha so'zlab berildi.
2. **Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi haqida ma'ruzalar:** Tadbirda Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi haqida bir nechta ma'ruzalar tinglandi. Zulfiyaxonimning ijodidagi asosiy mavzular, uning she'rlaridagi chuqur ma'no va zamonaga ta'sirini ta'kidlashdi.
3. **Adabiy chiqishlar:** Tadbir ishtirokchilari Zulfiyaxonimning tanilgan she'rlaridan parchalar o'qishdi. Bu, albatta, Zulfiyaxonimning

adabiyotga qo'shgan ulkan hissasini yana bir bor namoyon etdi va uning qalbimizdagi o'rnini mustahkamladi.

4. **Yodgorliklar va interaktiv suhbat:** Tadbir davomida Zulfiyaxonimning hayoti va ijodiga oid video roliklar, suratlar va hujjatlar ko'rsatilgan. Ishtirokchilar Zulfiyaxonim bilan bog'liq xotiralarini o'rtoqlashib, ularning qablarda qanchalik jonli ekanligini qayd etishdi.
5. **Tadbir yakuni:** U Zulfiyaxonimning adabiyotga qo'shgan ulkan hissasini yana bir bor ta'kidladi va uning xotirasi qablarda mangu yashashi haqida so'zlab berdi.



Tadbirning ahamiyati:

Ushbu tadbir Zulfiyaxonimning adabiyotga qo'shgan hissasini, uning ijodiga bo'lgan hurmat va muhabbatni yanada kengaytirish, uning ismi va merosini kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida muhim ahamiyat kasb etdi. Zulfiyaxonimning she'riyatidagi o'ziga xoslik va o'z zamonasiga bo'lgan ta'siri doimo xotiralarda saqlanadi.



Bayonlashtirdi



Sh.T.Haqberdiyev

**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida
Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan tashkil etilgan "Zukko
kitobxon – bilimlar manbai!" tanlovi tashkil qilinganligi to'g'risidagi**

BAYONNOMASI

Buxoro shahar

19.03.2025 yil

KUN TARTIBI:

Buxoro davlat universiteti talabalari orasida Intellektual salohiyatini oshirish
hamda faol va iqtidorli talabalar bazasini shakllantirish

ESHITILDI:

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida Zukko kitobxon – bilimlar manbai! Buxoro davlat universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan yoshlar orasida intellektual salohiyatni oshirishga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga va keng qamrovli bilimlarni egallashga qaratilgan. "Zukko kitobxon" intellektual o'yini bo'lib o'tdi. Bu o'yin yoshlarni nafaqat ilm-fan, adabiyot, tarix kabi sohalarda chuqurroq bilim olishga yordam beradi. "Zukko kitobxon"ning navbatdagi soni orqali ishtirokchilar o'z salohiyatlarini namoyish etish, raqobat muhitida o'z o'rnini topish va kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun mustahkam poydevor yaratish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

QAROR QILINDI:

1. Buxoro davlat universiteti talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qolaversa, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida intellektual o'yinlari muntazam tashkil etilsin.

2. Intellektual o'yinini tashkil etish Buxoro davlat universiteti yoshlar kengashi

Intellektual

loyihal



ar koordinatoriga yuklatilsin.



Bayonlashtirdi:

Djumayeva.O